



ERTAK MATNI TAHLILI

Hotamova Muhtaram

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada xalq og'zaki janri bo'lmish ertaklarning mazmuniy tahlili va o'rganilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ertak janri, umumiy tahlil, nazariy omillar, xalq og'zaki ijodi, passiv obrazlar, personaj.*

Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining [asosiy janrlaridan biri](#); to'qima va uydirmaga asoslangan sehri sarguzasht va maishik xarakterdagi epic badiiy asar. Asosan, nashr shaklida yaratilgan. M.Koshg'ariyning "Devoni lug'oti turk" asarida yetuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzida hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmala asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo'lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig'idagi dinamik harakatning konflikt yechimini ta'minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta'limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o'ziga xos badiiy tasvir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan yoki mavjud bo'lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig'ida tutgan o'rni va vazifasiga ko'ra ertakni 2 guruhga – xayoliy uydirmalar asos bo'lgan ertak, hayotiy uydirmalar asos bo'lgan ertaklarga bo'lish mumkin. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertak syujeti mo'jizali, sehri; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertak syujeti esa hayotiy tarzda bo'lib, unda real voqea-hodisalar tasvirlanadi. Ertakda, asosan, uch maqsad hikoya qilinadi. Birinchisida ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o'zga yurt malikalariga yoki parzodlariga oshiq bo'lib uylanishi, [kasalga dori topishi](#), ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar bayon qilinadi. Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g'ayritabiiy kuch-qudrati bilan amalga oshsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vostalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aql-idroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi. Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi,

ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi.

1. Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, [chaqqon qahramonlar](#), ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonlilik, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlar bo'ladi. Ertakning pedagogic [qiymati shundan iboratki](#), o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilgandan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Masalan, "Halollik" ertagida(3-sinf) asosi fikr kambag'allarga yordam ko'rsatish, o'z mehnati bilan hayot kechirish bo'lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, "Hiylagarning jazosi" ertagida (4-sinf) soddadilning to'g'riligi hiylagarning makri ustidan g'olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g'oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to'g'riso'zlikning g'alabasi bilan yakunlanadi.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytilish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqini o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim. Masalan, "Rostgo'y bola" (1-sinf) ertagida bola o'z rostgo'yiligi bilan podshoga ma'qul bo'lganligi hikoya qilingan. Ertak g'oyasiga mos xulosa esa "Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir" maqoli bilan ifodalangan. O'quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o'zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

Ertakni o'qib, mazmuni bilan tanishtirilgach, o'quvchilardan shaylanib, ro'parasida, sharbat, xayrli ish, xivchin, muhayyo so'zlarining ma'nosi so'raladi. Javoblar to'ldiriladi, umumlashtiriladi.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo'llagan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag'alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin: Ertak bilan tanishtirish:

- a. o'quvchilarni ertakni [idrok etishga tayyorlash](#);
- b. o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi b)h ok.

2. Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;

3. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichida o'qish); hikoyani o'qish metodikasi; hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

"Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmunini ertakdagidan ortiqroq hayotidir" Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin, hikoya janri ham hayotiyligi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf "O'qish kitobi"dagi "Dadam qurgan dengiz" (Hakim Nazir), "Olma" (Malik Murodov), "Ilmli ming yashar" (Nurmat Maqsudiy), "Xazonchinak" (O'. Hoshimov), "Qo'shterak" (A. Isroilov), "Mehnatkash qiz" (Oybek) va boshqalar qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarning xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Xalqning turmush tarjibalari, kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelib, o'z isbotini topgan maqollar, naqlarni hayot maktabi darsligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi. Ertakning o'tkir, maroqli sujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z kishilar timsoli bo'ladi. Ertakning pedagogic qiyati shundaki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Masalan, "Halollik" ertagida asosiy fikr kambag'allarga yordam ko'rsatish, o'z mehnati bilan hayot kechirish bo'lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g'oyasi ilgari surilgan bo'lsa, "Hiylagarning jazosi" ertagida esa soddadilning to'g'riligi hiylagarning makri ustidan g'olib keishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g'oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to'g'riso'zlikning g'alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g'alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qo`shjanov M. Qalb pokligi. Saylanma 1 jild. T.: 1982.
2. Xudayberganov N. Parvoz davom etadi. – T.: 1980. 240b
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – T.: 2004.
6. Normatov U. Yangi o`zbek adabiyoti. – T.: 2007 va boshqalar.
7. Ergashev A.S. Rivoyat va uning badiiy asar syujet – kompozitsion tuzilishidagi o`rni. Filologiya fanlari nomzodi. Diss. Avtoref. – T.: 1993.
8. Qurbanov T.J. O.Yoqubovning portret yaratish mahorati: Filol. Fanlari nomzodi diss. Avtoref. – T.: 1997.
9. Rahimov Z.A. O.Yoqubovning “Ko`hna dunyo” romani poetikasi.

